

Date: 17th January-2026

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOYIY-IQTISODIY TIZIMNI
TRANSFORMATSIYALASHNING AMALIY HOLATI VA TENDENSIYALARI
(TRANSFORMATSIYA JARAYONIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING
INNOVATION YECHIMLARI)**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil izlanuvchi (PhD)

Kandaxarov Zafar Ishratovich

Tyutorlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi tyutori

Muqimova Shaxnoza Orifxo‘jayevna

Tyutorlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi tyutori

Tajibayeva Komila Taxirjonovna

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy tizimni transformatsiyalash jarayoni, uning amaliy holati va rivojlanish tendensiyalari chuqur tahlil etilgan. Transformatsiyaning asosiy yo‘nalishlari sifatida iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, raqamli texnologiyalarni joriy etish, boshqaruv tizimini optimallashtirish, inson kapitalini rivojlantirish kabi ustuvor sohalar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, transformatsiya jarayonida yuzaga kelayotgan tizimli va struktural muammolar aniqlanib, ularning innovatsion yechimlari taklif qilingan. Muallif tomonidan transformatsiyaning institutsional, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy-iqtisodiy tizim, transformatsiya, innovatsiyalar, raqamli iqtisodiyot, institutsional islohotlar, iqtisodiy diversifikatsiya, boshqaruv tizimi, inson kapitali, startaplar, ijtimoiy innovatsiyalar.

Ma’lumki, mamlakatning yuksalishiga hissa qo‘shadigan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bevosita ta’lim tizimining rivojiga bog‘liq bo‘lib, bu borada o‘zining mustaqil fikriga ega bo‘lgan, ijodkor, tadbirkor, tashabbuskor shaxsni voyaga yetkazish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi hamda ushbu maqsadga erishish yo‘lidagi vazifalar respublikamiz Prezidentining qator farmon va qarorlarida o‘zining ifodasini topgan. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bejizga: “Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta’lim va tarbiya bo‘ladi!”, – deb ta’kidlamaganlar. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida zamonaviy bilim va yangicha yondashuvlarga ehtiyoj mavjud. Shu bois, ta’lim sifatini oshirishda o‘quv jarayonini davr talablariga mos holda tashkil etish, davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlarini takomillashtirish, yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish, zamonaviy innovatsion pedagogik va raqamli texnologiyalaridan foydalanish, oliy ta’lim va raqamli texnologiyalarning transformatsiyasini ta’minlash ertangi istiqboldagi yutuqlarimiz kafolatidir. Fan va texnika jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda Vatanimiz kelajagi bo‘lmish yoshlarni har tomonlama yetuk kadrlar etib shakllantirishda ta’lim



Date: 17th January-2026

jarayonida raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish ko'zlangan maqsadga erishishimizda muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, bugungi yuksak texnologiyalar zamonida ilmiy bilim, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bordi. "Bu, bir tomondan, fan-texnikaning yangi sohalari rivojlanishi tufayli uning differensiallashuvini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayoni vujudga keladi. Bunday sharoitda malakali kadrlarga bo'lgan talab ortib, o'z sohasi bo'yicha fundamental bilimlarni mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuqori bo'lgan hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni amaliyotda qo'llay oladigan ijodkor kadrlarni tayyorlash talab etiladi". Chunki, biz xohlaymizmi yoki yo'qmi, bugungi kundagi taraqqiyot ko'p jihatdan raqamli texnologiyalarining rivojlanish ko'rsatkichlariga bog'liq bo'lib qoldi. Prezidentimiz ta'birlari bilan aytganda: "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart". Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga raqamli texnologiyalar chuqur kirib bormoqda. Shuning uchun ham yoshlarning raqamli texnologiyalar bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi bugungi zamon talabi sanaladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli va samarali tashkil etish bo'yicha "Besh tashabbus"ning uchinchi tashabbusi "aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish"ga qaratilganligi bejiz emas edi.

So'nggi yillarda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi tufayli ta'limni samarali tashkil etishda ularning imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanila boshlandi. Ta'kidlash joizki, bugungi kunda ta'limni raqamli texnologiyalarisiz tasavvur eta olmaymiz. Zero, bugungi kunda ta'lim muassasalarida foydalaniladigan multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlarning o'rni beqiyosdir. Raqamli texnologiyalar ta'lim sifatini oshishiga xizmat qiluvchi vositalardan sanaladi. Xususan, bu kabi texnologiyalar ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayoni faollashishiga, turli raqamli texnologiyalardan foydalana olish imkoniyatining shakllanishiga imkon yaratadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish auditoriyaning to'liq qamrab olish va fanga nisbatan ijobiy munosabatni uyg'otishga sabab bo'ladi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalardan ta'lim tizimida foydalanilishi talabalarga dars mashg'ulotlarini sifatli o'tilishini ta'minlaydi. Birgina, pandemiya sharoitining o'zi ham ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi yaxshi samara berishini isbotladi. Raqamli ta'limga o'tishning boshqa ijobiy tomonlari xususida fikr yuritadigan bo'lsak, darsliklar elektron shaklda ekranlarga ko'chadi, talabalar o'zlariga qulay bo'lgan vaqtda ta'lim olish imkoniga ega bo'ladi, internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi, ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'taradi, vaqt va mablag' sarfini kamaytiradi va boshqalar. Ayni shuning uchun ham hozirgi kunda jamiyat hayotining barcha sohalari qatori, ta'lim tizimining ham jadal raqamli rivojlanishini ta'minlash, shu jumladan, elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish juda katta ahamiyatga ega.

Date: 17th January-2026

Buning tasdig'i o'laroq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022- 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni 41-maqsadining beshinchi qismida "kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta'minlangan 100 mingdan ortiq bepul to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish" belgilanganligi juda katta ahamiyatga egadir. Shuningdek, bu boradagi ishlarni takomillashtirish maqsadida 2020 yil 5 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish choratadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni qabul qilingan bo'lib, mazkur huquqiy qonunosti hujjati O'zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishning ustuvor maqsadlari, muhim yo'nalishlari hamda istiqbolli vazifalarini belgilaydi. Bundan tashqari, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida qayd etilgan vazifalardan kelib chiqib, raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonini yanada takomillashtirish uchun axborot texnologiyalaridan ta'lim berish jarayonini yanada optimallashtirish, buning uchun esa, o'sib kelayotgan yosh avlod orasida axborot texnologiyalarini yanada ommalashtirish, shuningdek, aholining barcha qatlamlari orasida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish, turli yoshdagi aholiga Internet tarmog'ida ishlash, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan va boshqa texnologiyalardan foydalanish bo'yicha tegishli bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga qamrab olgan kompyuter savodxonligi o'quv kurslarini tashkil etish, axborot texnologiyalari sohasida masofaviy, onlayn va virtual o'qitish texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, onlayn kurslar uchun platformalar ishlab chiqish, raqamli texnologiyalar sohasida yuqori bilim va malakaga ega bo'lgan kadrlarni shakllantirish maqsadida umumta'lim maktabi o'quvchilariga dasturlashni o'rgatish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratib berish va boshqalardan iborat. Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va bu boradagi ishlarning yanada kengaytirilishi ta'lim jarayoni ishtirokchilari uchun juda katta afzalliklarga ega. Aytaylik, oliy ta'lim muassasalariga hujjatlarning onlayn shaklda topshirilishi bu ularning ham vaqtini, ham "naqd"ini tejaliishiga xizmat qilmoqda. Yokida ta'lim jarayonida dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etilishi ta'limdan ko'zlangan maqsadga erishilishiga olib keladi. Misol uchun, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda turli vatanparvarlik ruhidagi video-roliklarning namoyish etilishi yoshlarning qalbida o'z Vataniga nisbatan yuksak fuqarolik burchining shakllanishiga xizmat qilishi mumkin. Shu sababli, ta'lim sohasida ham raqamli ko'nikmalarni oshirish muhim ahamiyatga ega va ushbu jarayonni takomillashtirish uchun ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali ulara raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo'ladigan keng ko'lamli raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko'nikmalar berish lozim. Bir so'z bilan aytganda, raqamlashtirish jarayoni faoliyatimiz samaradorligi, ta'lim sifati, shaffoflik

Date: 17th January-2026

va hudud xavfsizligini ta'minlashda, o'qituvchi va talabalarga qulaylik yaratish barobarida keng imkoniyatlar yaratib berdi¹.

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida milliy iqtisodiy tizimlarning moslashuvchanligi va raqobatbardoshligi masalasi har qachongidan ko'ra dolzarbroq bo'lib bormoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy tizimini transformatsiyalash bo'yicha so'nggi yillarda olib borilayotgan chuqur islohotlar – iqtisodiyotning liberallasuvi, raqamli texnologiyalarni joriy etish, ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan yangilanishlar – mazkur mavzuning nazariy va amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Transformatsiya jarayonining muvaffaqiyati innovatsion yondashuvlar, institutsional o'zgarishlar va inson kapitalining rivojlanish darajasiga bevosita bog'liqdir. Shu boisdan ham ushbu mavzuni chuqur o'rganish, undagi muammolarni aniqlab, zamonaviy yechimlar taklif etish dolzarb ilmiy va amaliy vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida bosib o'tgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'li murakkab, ammo izchil bosqichlardan iborat bo'lib, bugungi kunga kelib davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi transformatsiyasi sezilarli darajada chuqurlashdi. Transformatsiya jarayoni davlatning bozor iqtisodiyotiga o'tish istagidan kelib chiqib, institutsional, iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy yo'nalishlarda jadal islohotlarni talab qildi.

Makroiqtisodiy muvozanat va iqtisodiy o'sish tendensiyalari. So'nggi yillarda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sish sur'ati 5–6% atrofida bo'lib, mintaqadagi eng barqaror ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotning asosan xomashyo eksportiga tayanib kelgani sababli, diversifikatsiya masalasi ustuvor yo'nalishga aylandi. Shu munosabat bilan sanoat tarmoqlari, ayniqsa, to'qimachilik, farmatsevtika, oziq-ovqat va kimyo sohalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Sanoat va innovatsion infratuzilma rivoji. Sanoatni modernizatsiyalash va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) va texnoparklar soni ortib borayotgani sanoat transformatsiyasining asosiy vektori bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, "Yashnobod" innovatsion texnoparki, "Urgut", "Jizzax" va "Navoi" EIZlari zamonaviy texnologiyalarni jalb qilishda muhim rol o'ynamoqda.

Raqamli transformatsiya va boshqaruv samaradorligi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida iqtisodiyotni raqamlashtirish ishlari faol olib borilmoqda. Xususan: Elektron hukumat tizimi keng joriy etildi, soliq va bojxona tizimlari raqamlashtirildi, bank-moliya sektori elektron to'lov va onlayn xizmatlarga o'tmoqda. Bu transformatsiya ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruvda shaffoflik va samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy sohadagi islohotlar. Aholining farovonligini oshirish, kambag'allikni qisqartirish, sifatli ta'lim va tibbiy xizmatlar ko'rsatish borasida ham keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. "Kambag'allikni qisqartirish strategiyasi", "Yoshlar daftari",

¹ <https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0016/2.22.pdf>



Date: 17th January-2026

“Ayollar daftari” kabi tashabbuslar orqali ijtimoiy himoya siyosati yangicha yondashuv asosida yo‘lga qo‘yildi.

Transformatsiya jarayonidagi asosiy tendensiyalar. Hozirgi bosqichda quyidagi tendensiyalar yaqqol ko‘zga tashlanmoqda: bozor mexanizmlarining kuchaytirilishi, xususiy sektor faolligining oshishi, davlat boshqaruvining optimallashtirilishi, innovatsion va raqamli texnologiyalarning iqtisodiyotga integratsiyalashuvi, ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillarining ustuvorlikka chiqishi.

Transformatsiya jarayonidagi muammolar va ularning innovatsion yechimlari. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar o‘zining murakkabligi, ko‘p qirrali jihatlari bilan ajralib turadi. Mazkur jarayon davomida yutuqlar bilan bir qatorda bir qator tizimli va struktural muammolar ham yuzaga chiqmoqda. Ularni zamonaviy yondashuvlar, jumladan, innovatsion yondashuvlar asosida hal etish zarurati bugungi kunning dolzarb masalalaridandir.

Institutsional va boshqaruv muammolari. Muammo: Huquqiy-huquqiy me‘yorlarning takomillashmaganligi; Davlat organlari o‘rtasida vakolatlar chegarasining noaniqligi; Korrupsiya holatlarining saqlanib qolayotgani.

Innovatsion yechim: Raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish, masalan, blockchain asosida davlat xaridlarini boshqarish; Sun‘iy intellekt asosida byurokratik jarayonlarni avtomatlashtirish; Ochiq ma‘lumotlar (Open Data) platformasini kengaytirish orqali shaffoflikni oshirish.

Iqtisodiy diversifikatsiya va raqobat muammolari. Muammo: Eksport strukturasiining cheklangani va xomashyoga qaramlik; Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardosh emasligi; Bozor iqtisodiyoti tamoyillarining to‘liq joriy qilinmaganligi.

Innovatsion yechim: Yangi mahsulotlar yaratishda ilm-fan va texnologiyalarning integratsiyasini kuchaytirish; Startaplar va innovatsion loyihalarni grantlar orqali rag‘batlantirish; Raqamli marketing va elektron savdo platformalari orqali ichki va tashqi bozorlarga chiqishni kengaytirish.

Ijtimoiy tengsizlik va bandlik muammolari. Muammo: Aholi orasida daromadlar tafovuti yuqoriligi; Yoshlar va ayollar bandligining yetarli emasligi; Mehnat migratsiyasining yuqori darajada qolayotgani.

Innovatsion yechim: “Yoshlar innovatsion markazlari” orqali texnik va tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish; Onlayn platformalar (masalan, freelance, e-learning) orqali masofaviy bandlikni kengaytirish; “Ijtimoiy innovatsiyalar laboratoriyalari” orqali jamoatchilik ehtiyojlariga asoslangan loyihalarni yaratish.

Ta‘lim va ilm-fan integratsiyasidagi muammolar. Muammo: Oliy ta‘limda nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovut; Ilmiy tadqiqotlarning ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘lanmaganligi; Innovatsion madaniyatning sustligi.

Innovatsion yechim: Dual ta‘lim tizimini keng joriy etish (korxona + oliy ta‘lim); Ilmiy tadqiqot institutlarini biznes sektori bilan uzviy bog‘lash; STEM yo‘nalishidagi innovatsion inkubatorlarni har bir hududda tashkil etish.



Date: 17th January-2026

Moliya va investitsiya tizimidagi muammolar. Muammo: Kredit resurslarining cheklanganligi; Venchur kapital va xususiy investitsiyalarning pastligi; Moliyaviy savodxonlikning yetarli emasligi.

Innovatsion yechim: Fintex texnologiyalar asosida mikro-moliyaviy xizmatlarni kengaytirish; Venchur fondlar va “biznes farishtalar” (angel investors) ekotizimini shakllantirish; Raqamli platformalar orqali aholiga va tadbirkorlarga investitsion loyihalarni taqdim qilish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy tizimni transformatsiyalash jarayoni zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning muhim bosqichlaridan biri bo'lib, u chuqur institutsional islohotlar, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va raqamli iqtisodiyotga o'tish bilan chambarchas bog'liqdir. Transformatsiyaning amaliy holatini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, bu jarayon yurtimizda ijobiy sur'atlar bilan rivojlanmoqda, biroq ayrim tizimli muammolar mavjudligi tufayli u kutilgan darajada samaradorlikka erisha olmayapti.

Transformatsiyaning muvaffaqiyati – innovatsion yondashuvlar, inson kapitalini rivojlantirish, raqamli infratuzilmani kengaytirish hamda ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy aloqani ta'minlashga bevosita bog'liq. Shuningdek, hududlararo tafovutlarni kamaytirish, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va institutsional muvofiqlikni ta'minlash ham transformatsiya samaradorligini oshiradi.

Maqolada ilgari surilgan tahlillar va takliflar asosida xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya chuqur ilmiy asoslangan holda olib borilsa, u milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga asos yaratadi.

Transformatsiya jarayonida vujudga kelayotgan muammolarni an'anaviy usullar bilan emas, balki innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy innovatsiyalar va ilmiy salohiyat asosida hal qilish muhim ahamiyatga ega. Bu esa O'zbekistonning yangi iqtisodiy bosqichga o'tishida muhim zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tish yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1993.
2. Prezident Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston – inson qadri ulug'langan jamiyat va xalqparvar davlat. – T.: “O'zbekiston”, 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026- yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni: Lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF–60-son Farmoni.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi: Daryo yangiliklari
6. Stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy sayti. <https://stat.uz>



Date: 17th January-2026

7. Ta'lim sifati islohotlar muammolar yechimlar va istiqbollari haqida fikr va mulohazalar.
8. Qosimov B., Abdurahmonov Q. Bozor iqtisodiyoti nazariyasi. – T.: “Iqtisodiyot”, 2018.
9. kun.uz
10. To'xtayev B.X. Innovatsion iqtisodiyot: nazariya va amaliyot. – T.: “Fan va texnologiya”, 2020.
11. Alimov R.X. Milliy iqtisodiyot va raqamli transformatsiya: nazariy va amaliy jihatlar. – T.: “Innovatsiya”, 2022.
12. World Bank. Uzbekistan Country Economic Update – Summer 2023.
<https://www.worldbank.org>
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF6079-sonli “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni: lex.uz
14. OECD. Innovation and Economic Performance. Paris: OECD Publishing, 2021.
15. UNDP Uzbekistan. Human Development Report 2023 – Central Asia and Uzbekistan.
<https://www.undp.org>

